

MARKAZIY OSIYO TARIXSHUNOSLIGIDA QORAQALPOG‘ISTON MUSIQA MADANIYATI  
TARIXINING TALQIN ETILISHI

Xodjametova Gulchira Ilishevna – *t.f.n., professor*  
[gulchirakhodjametova@gmail.com](mailto:gulchirakhodjametova@gmail.com)  
*O‘zDSMI Nukus filiali*

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ИСТОРИИ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ КАРАКАЛПАКСТАНА В  
ИСТОРИОГРАФИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Ходжаметова Гулчира Илишевна – *к.и.н. профессор*  
*Нукусского филиала ГИИКУз*

INTERPRETATION OF THE HISTORY OF KARAKALPAKSTAN'S MUSICAL CULTURE IN  
CENTRAL ASIAN HISTORIOGRAPHY

Xodjametova Gulchira Ilishevna – *Candidate of Historical Sciences, professor*  
*Nukus Branch of the Uzbekistan State Institute of Arts and Culture*

**Tayanch so‘zlar:** musiqa madaniyati, qo‘shiqchilik san‘ati, Sharq musiqa madaniyati, bastakorlik maktablari, opera va simfonik san‘ati, xalq musiqasi.

**Rezyume.** Ushbu maqolada mustaqillik davri Qoraqalpog‘iston musiqa madaniyati tarixini Markaziy Osiyo xalqlari musiqa madaniyati kontekstida tadqiq etishning dolzarbligi quyidagi omillar bilan asoslanadi: xalqimizning ma‘naviy tiklanish ehtiyoji; zamonaviy qo‘shiqchilik san‘ati tarixiga qiziqishning ortishi; ikki davr - totalitarizm va demokratiya chorrahasida musiqa olamining mohiyatini chuqur anglash zarurati.

**Ключевые слова:** музыкальная культура, песенное искусство, музыкальная культура Востока, композиторские школы, оперное и симфоническое искусство, народная музыка.

**Резюме.** В данной статье актуальность исследования истории музыкальной культуры Каракалпакстана периода независимости в контексте музыкальной культуры народов Центральной Азии обосновывается следующими факторами: потребностью нашего народа в духовном возрождении; возросшим интересом к современной истории песенного искусства; необходимостью глубокого осмысления сущности музыкального мира на стыке двух эпох - тоталитаризма и демократии.

**Key words:** musical culture, vocal arts, Eastern musical culture, schools of composition, opera and symphonic art, folk music.

**Summary.** This article explores the relevance of studying the history of Karakalpakstan's musical culture during its period of independence within the context of the musical cultures of the peoples of Central Asia. This relevance is based on the following considerations: the need for the spiritual revival of our people; the growing interest in the modern history of the vocal arts; and a deeper understanding of the essence of the musical world at the intersection of two eras - totalitarianism and democracy.

**Kirish.** Musiqa madaniyati butun ijtimoiy borliqning eng ta‘sirchan va shakllantiruvchi tarmog‘idir. Mustaqillik tongi otishi arafasidayoq musiqa madaniyatiga beqiyos e‘tibor qaratilgani bejiz emas. Chunki tarixiy o‘tmishni tiklash jarayonida nafaqat tarixni, balki umuman Sharq musiqa madaniyati tarixini, xususan, Qoraqalpog‘iston xalqlarining musiqiy hayotini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, “bu musiqa ming yillar davomida insonlar qalbini poklaydi, ularni ulug‘laydi va yuksaltiradi”. [1.89]

Musiqa xalqlarimizning ma‘naiy va madaniy hayotida bir-birini boyitib, millati va dinidan qat‘i nazar, xalqlar va odamlarni yaqinlashtiradi. Madaniyatning bu qismi vakillarini hech bir mubolag‘asiz “madaniyat va do‘stlik elchilari” deb atash to‘g‘ri bo‘ladi.

**Usullar.** Mazkur ilmiy maqola mavzusini

yoritishda Qoraqalpog‘istonning mustaqillik davri musiqa madaniyati tarixini Markaziy Osiyo xalqlari musiqa madaniyati kontekstida tadqiq etishning dolzarbligi quyidagi mulohazalardan kelib chiqishi: xalqimizning ma‘naviy tiklanish ehtiyoji; qo‘shiqchilik san‘atining zamonaviy tarixiga qiziqishning kuchayishi haqqida ko‘rib chiqilgan.

**Natijalar va munozara.** Musiqa madaniyati tarixda har doim muhim rol o‘ynagan. Uning tarixiy bosqichlari va rivojlanish shakllarini o‘rganishning dolzarbligi ushbu tushunchaning mohiyatini anglashdan kelib chiqadi. Sharqning ohangrabo tinch va vazmin hayot tarzi hamda turmush uslubi musiqa san‘atining beshigi bo‘lganligi va shunday bo‘lib qolayotganligi hamma tomonidan tan olingan haqiqatdir. Sharq musiqasi – bu Sharq falsafasi, Sharq dunyosining

ajralmas tarkibiy qismlaridan biridir. Sharq musiqasi jahon madaniy merosida ulkan o‘rin egallaydi. G‘arbiy Yevropa klassik musiqasining Markaziy Osiyo tovush tizimiga ta‘sirini o‘rganish, ayniqsa XX asrda yaqqol namoyon bo‘lgan jihatlarini tadqiq etish, dolzarb masala sifatida ko‘rilmoqda.

Markaziy Osiyo madaniyatlarida sovet musiqasi tarixini tushunish davrning asosiy xususiyatini – “musiqiy ko‘ptillilik”ni namoyon etdi. Ushbu xususiyat ham alohida milliy madaniyatlarga (rus madaniyatida sovet musiqasi va “chet eldagi rus” musiqasi; [2. 135] Markaziy Osiyo milliy madaniyatlarida an‘anaviy san‘at va Evropa namunasidagi san‘at, ham madaniyatlararo muloqotning tobora kuchayib borayotgan jarayoniga aloqadordir. Zamonaviy fan uchun an‘anaviy qozoq musiqasining boshqa turkiy madaniyatlar bilan o‘zaro aloqasi masalalari yangi yo‘nalish bo‘lib qoldi. Qozog‘iston etnomusiqashunoslari zamonaviy an‘analar vakillari taqdirini o‘rganmoqdalar.

1994-yilda Olmaota shahrida bo‘lib o‘tgan “Turkiy xalqlar musiqasi” birinchi xalqaro simpoziumida dunyoning turli mamlakatlaridan 100 ga yaqin olim ishtirok etdi. Turk musiqasini sharq monodiyasining bir ko‘rinishi sifatida o‘rganishda X.Qo‘shnarev, U.Gojibekov, S.Galitskaya va O.Matyaqubovlarning asarlari metodologik ahamiyatga ega. Muayyan turkiy xalqlarning an‘anaviy musiqasiga bag‘ishlangan asarlar uning (musiqaning) umuman tovush olamini o‘rganishda metodologik asos bo‘ldi. Ular orasida Turkmaniston musiqa cholg‘ulari, cholg‘u va vokal-cholg‘u musiqasi; O‘zbekiston; Qirg‘iziston Respublikasi; Boshqirdiston; Tatariston; hamda O‘rta Osiyoda istiqomat qiluvchi uyg‘ur diasporasi haqidagi nashrlar mavjud.[2.121]

Musiqqa madaniyati tarixi Markaziy Osiyo olimlarining asarlarida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, bu mintaqamiz musiqiy hayotining umumiy manzarasini tasavvur qilish imkonini beradi. Mualliflarning ta‘kidlashicha, O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlari uchun 1920-yillar ularning milliy musiqa madaniyatlari poydevorini qo‘yish, zamonaviy professional san‘atning yangi shakllariga o‘tish uchun zarur shart-sharoitlar va zamin yaratish davri bo‘lgan. Bu borada sovet hukumati tomonidan olib borilgan milliy chegaralanish va xalqlarning umumiy madaniy darajasini yuksaltirish chora-tadbirlari muhim ahamiyat kasb etdi.

1920-yillardayoq ularda milliy adabiyotlar yuksak darajada rivojlandi, teatr san‘atining milliy o‘ziga xos shakllari vujudga keldi, musiqa

madaniyati sohasida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. O‘rta Osiyo va Qozog‘istonning barcha xalqlarida milliy madaniyatlarning shakllanishi va rivojlanishida xalq ijodini keng o‘rganish va targ‘ib qilish hal qiluvchi omil hisoblanadi. [3. 21-25] Aynan 1920-yillarda o‘zbek, turkman, qozoq musiqa folklori sohasida fundamental asarlar yaratildi. Xalq musiqasi turmush tarzining yangi shakllari vujudga kelmoqda; uning kontsert estradasidan turli xil ishlovlarda ijro etilishi professionallashuv sari qo‘yilgan dastlabki qo‘yilgan qadam edi. Keyingi o‘n yilliklarda O‘rta Osiyo xalqlarining aksariyatida professional musiqa ijodining ilk namunalari paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan teatrning roli katta bo‘ldi. Folklor nashrlari va milliy musiqachilarning ijrolari tufayli O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalq san‘ati ushbu respublikalardan tashqarida ham mashhur bo‘ldi. Uning qo‘llanilishi ularda kelgusida professional kompozitorlik ijodining yuzaga kelishiga katta yordam berdi.

V.V.Zaderatskiy XX asr Markaziy Osiyodagi musiqiy-tarixiy jarayonning ko‘plab hodisalarini ob‘ektiv global o‘zgarishlar, mustaqillikning qo‘lga kiritilishi bilan tushuntiradi. Ikki turli yo‘nalishdagi tendentsiya – globallashuv va milliy madaniyatning o‘z an‘analarini saqlab qolish va rivojlantirishga intilishi (“mumsivilizatsion jahon jarayonlariga qo‘shilib ketishga qarshilik ko‘rsatuvchi gen madaniyati”) haqidagi fikr ham unga tegishli. [4.76]

N.S.Yanov-Yanovskaya Markaziy Osiyo mamlakatlari musiqa madaniyati uchun sovet davrining ahamiyatini baholashga birinchilardan bo‘lib urinib ko‘rdi. Asrning so‘nggi o‘n yilligi sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni anglash va qayta ko‘rib chiqish davri bo‘ldi. Markaziy Osiyoda mustaqillikning dastlabki o‘n yilliklarida madaniyatning Yevropa modelini jadal o‘zlashtirish tufayli ularning ahamiyati va qadr-qimmatini “silliqlashtirildi”, qayta ko‘rib chiqildi.

Markaziy Osiyo madaniyatlarida sovet musiqasi tarixini tushunish davrning asosiy xususiyatini – “musiqiy ko‘ptillilik”ni namoyon etdi. Ushbu xususiyat ham alohida milliy madaniyatlarga (rus madaniyatida sovet musiqasi va “chet eldagi rus” musiqasi; Markaziy Osiyo milliy madaniyatlarida an‘anaviy san‘at va Yevropa namunasidagi san‘at), ham madaniyatlararo muloqotning tobora kuchayib borayotgan jarayoniga aloqadordir.[5.90]

Qozog‘istonlik olimlarning ishlarida Qozog‘iston musiqa san‘ati an‘anaviy madaniyat, birinchi navbatda, og‘zaki an‘ananing professional maktablari bilan chambarchas bog‘liqlikda va uzluksizlikda ko‘rib chiqiladi.

Milliy musiqa madaniyati taraqqiyotining yaxlit manzarasini qayta tiklashda alohida janr sohalari – opera, balet, an’anaviy janr tizimi va yangi san’atning o’zaro aloqasini o’rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy fan uchun an’anaviy qozoq musiqasining boshqa turkiy madaniyatlar bilan o’zaro aloqasi masalalari yangi yo’nalish bo’lib qoldi. Qozog’iston etnomusiqashunoslari zamonaviy an’analar vakillari taqdirini o’rganmoqdalar.

Qozog’iston voqeliklariga nisbatan qo’llanilgan “Sharq-G’arb” muammosi alohida tadqiqot sohasini tashkil etadi. Rus va qozoq madaniyatlari o’rtasidagi aloqalar masalalari: qozoq musiqasini tadqiq etish, milliy bastakorlik maktabining shakllanishi, qadimgi tarixiy davrlardagi madaniyatlararo munosabatlar, rus musiqiy sharqshunosligining ta’siri, rus madaniyatining Yevropa va Dasht o’rtasidagi vositachilik roli kabi mavzular respublikaning bir qator etakchi musiqashunos olimlari tomonidan o’rganilgan. [6.64-66]

X.Hamidovning doktorlik dissertatsiyasida an’anaviy o’zbek qo’shiqchilik san’atining paydo bo’lishi va rivojlanishi muammolarining zamonaviy metodologik nuqtai nazardan tarixiy-nazariy ishlab chiqilishi yoritilgan. Uning erishgan yutuqlarini alohida ta’kidlab o’tish joiz: u o’z ishida musiqa madaniyati asarlaridagi badiiylik va g’oyaviylikning uyg’unlik darajasini baholagan; qo’shiqchilik san’ati sohasida buyruqbozlik-ma’muriy boshqaruv tizimining vujudga kelishiga oid ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni yoritgan. Shuningdek, Markazning milliy madaniy jarayonga nisbatan mustamlakachi munosabatini va uning kontsert tashkilotlari hamda badiiy jamoalar faoliyatiga ko’rsatgan ta’sirini chuqur tahlil qilgan.[7.103]

Mustaqillik yillarida musiqa madaniyatining rivojlanish asoslarini ochib berishda XX asrning ikkinchi yarmida musiqa madaniyatining shakllanishi muhim o’rin tutadi. Shunday qilib, “O’rta Osiyo qo’shiqchilik san’atining kolonial davridagi ahvoli: yo’qotishlar, ziddiyatlar va o’zgarishlar” nomli uchinchi bobda X.Hamidov bolsheviklarning tezlantirilgan baynalmillallashtirish siyosati va tub milliy manfaatlarining e’tibordan chetda qoldirilishi madaniy qurilishga ulkan zarar etkazganini ta’kidlab o’tadi. 1990-yillarda ko’plab olimlar musiqa madaniyatining umumiy tanazzulga uchrashiwi, “bananlashuvi”, aholi madaniy darajasining pasayishi, “sovet o’tmishi”ning o’n yilliklari davomida madaniyat arboblarning bir necha avlodlarining ulkan byudjet mablag’lari va inson resurslari orqali maqsadli madaniy siyosat

tomonidan yaratilgan musiqa, teatr, kinodagi ayrim maktablarning parchalanishini qayd etdilar. Bunday baholash ko’p jihatdan xalq ommasining musiqa madaniyatining an’anaviy manbalariga qiziqishining ortishi, “sotsialistik realizm” tamoyillarining mafkuraviy asoslari, Yevropalashgan sovet madaniyati shakllari va turlarining biroz buzilishi bilan izohlanadi. [8.53]

Mustaqillik yillarida tadqiqotchilarning milliy madaniyat muammolariga, umuman, uning ayrim jihatlarini ijtimoiy fanlar (tarixiy, falsafiy, siyosatshunoslik, san’atshunoslik) nuqtai nazaridan o’rganishga e’tibori yanada kuchaydi. Masalan, K.Mira’zamovning dissertatsiyasida milliy madaniyatni rivojlantirish muammolari xalqning milliy-madaniy manfaatlari nuqtai nazaridan ko’rib chiqilgan. F.Xamrayevning ishida Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatlarining integratsiyalashuv jarayonlari ko’rib chiqilgan. Ma’naviy madaniyat muammolari va uni rivojlantirishning asosiy yo’nalishlari, uni rivojlantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarining o’zaro aloqadorligi va bir-birini taqozo etishi B.Xolmatovanning tadqiqot ob’ekti bo’lgan. Ammo tarix, nazariya, umuman madaniyatning ijtimoiy hayotdagi o’rni va ahamiyati haqidagi tadqiqotlar xilma-xil bo’lishiga qaramay, musiqiy hayotning o’zi, musiqa san’atining jamiyatni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashdagi o’zaro munosabati alohida o’rganilmagan. [9.76]

Hozirgi zamon tarixshunosligida XXI asrga kelib O’zbekiston hali ham sovet madaniy tajribasining muhim merosiga ega. Shu bilan birga yangi madaniyat institutlari, turlari va o’choqlari; bir necha avloddagi professional ijrochilik (Yevropa cholg’ularida) va bastakorlik maktablari, opera va simfonik san’at, keng tarmoqli madaniyat infratuzilmasi (yuzlab musiqa maktablari, kollejar, teatrlar, konservatoriya, kontsert zallari), zamonaviy teatr san’ati, kinematografiya va boshqalar faoliyat olib bormoqda. Umuman olganda, ikki tsivilizatsiya – Sharq va Yevropa badiiy tizimlarining sintezi doirasida madaniy qurilish amalga oshirildi; mumtoz an’analarni muqaddaslashtirish va estetiklashtirish, ularni an’anaviylikdan dunyoviy badiiy kontekstga o’tkazish amalga oshirildi; umummilliy badiiy uslublar, ramzlar va modellar yaratildi. Ushbu o’zgarishlar natijasida hozirgi O’zbekistondagi madaniy vaziyat o’zining murakkabligi, ichki ziddiyatlari va bir hil emasligi bilan ajralib turadi. Bu madaniy o’zgarishlarning yuqoriroq darajasiga o’tish yoki erishilgan yutuqlardan voz kechib, orqaga qaytish imkonini beradi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalarini

joriy etish, musiqa madaniyatini tijoratlashtirish va boshqa hozirgi yangiliklar yo'qotilgan madaniy boylıklar, uzilgan madaniy an'analar va shaxsiy omil alohida rol o'ynaydigan maktablarning o'rnini to'ldira olmaydi. O'zbekiston madaniyatining ichki mohiyatida o'zgarishlar jarayoni boshlangani yaqqol ko'zga tashlanadi. [10.87] Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, zamonaviy bosqichda "engil" deb ataladigan, ya'ni ommaviy, engil janrli musiqa ulkan ko'lamga ega bo'ldi. Kompozitorlik ijodiyotida davrimiz kishilari psixologiyasidagi yangilik xususiyatlari qanday aks etsa, ommaviy musiqa madaniyatining ayrim sohalaridagi novatorlik tendentsiyalari ham shunday xilma-xildir. Buning muhim sabablaridan biri badiiylikdan ko'ra ko'proq sotsiologik xarakterga ega. Eng boshidanoq professional musiqiy-ijodiy markazlar muhitidan uzilib qolgan estrada qo'shig'i, shunga qaramay, o'zining betakror shakli doirasida XX asr badiiy psixologiyasining ayrim eng muhim tendentsiyalarini aks ettirdi.

Tarixshunoslik tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiqotchilarning ishlarida O'zbekiston va Qoraqalpog'iston musiqiy hayotidagi o'zgarishlar jarayoni to'liq ochib berilmagan. Hozirgi vaziyat tahlili shundan dalolat beradiki, O'zbekistonning madaniyat, jumladan, musiqa sohasidagi siyosatida turli qatlamlar o'rtasidagi munosabatlarda ustuvorliklarni belgilash

muammosi, eng avvalo, avtoxton (an'anaviy) yoki milliy va zamonaviy, Sharq va Yevropa-Rossiya badiiy tajribasi sinteziga asoslangan munosabatlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

1990-yillarning asosiy va eng dolzarb muammosi quyidagicha edi: bu merosni nima qilish kerak, uni qanday saqlash va rivojlantirish kerak va eng muhimi, u milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida anglanadimi yoki qayta tiklanayotgan an'anaviy madaniyatning (sovet davrida ustuvor ahamiyatga ega bo'lmagan va ongli ravishda cheklangan) ommaviy hujumi bilan ajralib qoladi va siqib chiqariladi, rad etiladi va asta-sekin o'lim bilan tugaydi. Shu bilan birga, O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda to'plangan materiallar, madaniy rivojlanish va qurilishning yangi shakllari o'tmish va hozirgi davrni ilmiy jihatdan chuqur o'rganishni, qiyosiy tahlil qilishni talab qiladi.

Shunday qilib, Qoraqalpog'istonning mustaqillik davri musiqa madaniyati tarixini Markaziy Osiyo xalqlari musiqa madaniyati kontekstida tadqiq etishning dolzarbligi quyidagi mulohazalardan kelib chiqadi: birinchidan, xalqimizning ma'naviy tiklanish ehtiyoji; ikkinchidan, qo'shiqchilik san'atining zamonaviy tarixiga qiziqishning kuchayishi; uchinchidan, ikki davr – totalitarizm va demokratiya kesishmasidagi musiqa dunyosining mohiyatini chuqur anglash.

### Adabiyotlar

1. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998.
2. Акбаров И.А. Узбекская народная музыка (вопросы музыкальной культуры Узбекистана). – Ташкент, 1961. – 256 с.3. Айтмуратов Ж. Развитие культуры Каракалпакстана в 70-90-е годы XX века. – Нукус: Билим, 1997. – 104 с.4. Елеманова С.А. Наследие тюркской культуры (исторический обзор казахской традиционной музыки). – Алматы, 2012; Ритуальная музыкальная культура казахов. – Алматы, 2008; Утегалиева С.И. Звуковой мир музыки тюркоязычных народов // Вестник Адыгейского государственного университета. 2010. - №4.
3. Азимова А.Н. Традиционный музыкальный язык узбекского, каракалпакского и уйгурского народов. – Т., 2008. – 161 с.
4. Матякубов О. Р. Хорезмские макамы: Автореф. дис. ... канд. иск. наук. – Ташкент, 1977.
5. Базарбаев Ж. Өмир – бул сананың көтеріңкилиги. – Нөкис, 1996. – Б. 143-153.
6. Мираъзамов К. Национально-культурные интересы и развитие национальной культуры: Автореф. дис. ... канд. филос. наук. – Ташкент, 1995.
7. Векслер С.М. Очерки истории узбекской музыкальной культуры. – Ташкент, 1965. – 289 с. 8. Хамраев Ф. Социально-философский анализ интеграционных процессов культур народов независимых государств Центральной Азии: Автореф. дис. ... канд. филос. наук. – Ташкент, 2002.
8. Холматова Б. Духовная культура и особенности её развития в процессе перехода к рыночной экономике: Автореф. дис. канд. филос. наук. – Ташкент, 1997.
9. Тилеўмуратов М. Қарақалпақ хәм өзбек халықларының мәдений байланыслары тарийхынан. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1993. – 44 б.
10. Махмудов Т. «Маънавият»нинг маъноси // Санъатшунослик масалалари: Илмий мақолалар туплами. Масъул муҳаррирлар: О.А.Иброҳимов, М.А.Юсупова. – Тошкент, 1998. – Б. 182-190.